

# TURKIYA STIPENDIYALARI



# 01

## TURKIYA STIPENDIYALARI

**Turkiya Stipendiyalari raqamlarda**

**06**

**Stipendiya imkonlari**

**08**

**Stipendiya dasturlari**

**09**

Texnikum bosqichi uchun stipendiya dasturlari

Bakalavr bosqichi uchun stipendiya dasturlari

Magistratura va Doktorantura bosqichi uchun stipendiya dasturlari

Qisqa muddatli dasturlar

# 02

## NOMZODLAR

**Ariza topshirish**

**12**

**Kerakli hujjatlar**

**13**

**Ariza shartlari**

**14**

**Saralash jarayoni**

**15**

**Suhbatni baholash mezonlari**

**15**

# 03

## MAVJUD TALABALAR

|  |           |
|--|-----------|
| <b>Oryentatsiya (yo'naltirish)</b>     | <b>16</b> |
| <b>Turk tili tayyorlov kursi</b>       | <b>17</b> |
| <b>Stipendiya ishlari</b>              | <b>17</b> |
| <b>Madaniy va akademik rivojlanish</b> | <b>18</b> |
| <b>Xalqaro talabalar akademiyasi</b>   | <b>18</b> |
| <b>Amaliyot imkoniyatlari</b>          | <b>18</b> |
| <b>Xalqaro talabalar fan kongressi</b> | <b>19</b> |
| <b>Xalqaro talabalar mukofotlari</b>   | <b>19</b> |

# 04

## BITIRUVCHILAR

|   |           |
|---|-----------|
| <b>Xalqaro talabalar bitiruv marosimi</b> | <b>20</b> |
| <b>Bitiruvchilar tarmog'i</b>             | <b>21</b> |
| <b>Bitiruvchilar jamiyatlari</b>          | <b>21</b> |

# 05

## ARIZA TAQVIMI

Turkiya Stipendiyalari – dunyoning turli hududlaridan muvaffaqiyatli talabalar va tadqiqotchilarga Turkiyaning eng yaxshi universitetlarida to'liq yoki qisqa muddatli dasturlardan foydalanish uchun taqdim etilgan va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan raqobatbardosh stipendiya dasturi hisoblanadi.





## UMUMIY MA'LUMOTLAR

Turkiya Stipendiyalari dasturi oliy ta'limning butun bosqichlaridagi qobiliyatli xalqaro talabalarga o'qish uchun moliyaviy yordam berish bilan birga, talabalarни universitetga tayyorlash va jolashtirish jarayonlarini ham o'z ichiga oladi.



## RAQAMLAR BILAN TURKIYA STIPENDIYALARI



Hozirda 15 mingdan  
ortiq talaba stipendiya  
olmoqda

Har yili taxminan  
5 ming yangi  
stipendiya  
imkoniyati

Stipendiya taqdim etayotgan imkoniyatlar:



UNIVERSİTEL VA  
YO'NALISHGA  
JOYLASHTIRISH



OYLIK  
STIPENDIYA



UNIVERSİTEL  
KONTRAKT  
TO'LOVI



BİR YILLIK  
TÜRK TİLİ  
KURSİ



## UMUMIY MA'LUMOTLAR



Hozirgi kunda  
dunyoda stipendiya  
dasturidan  
foydalangan 150  
mingdan ortiq  
bitiruvchi mavjud

Dasturga har yili  
165 mingdan ortiq  
dunyoning farqli  
tomonlaridan arizalar  
kelib tushadi

100 ga yaqin davlatda  
Turkiya stipendiyalari  
intervyulari o'tkazilib  
kelinmoqda



TIBBİY  
SUG'URTA



TURAR JOY  
IMKONIYATI



BİR MARTALIK  
AVİACİHPĀ



MADANIY VА  
AKADEMİK  
DASTURLAR

# STIPENDIYA IMKONIYATLARI



**Universitetga va yo'nalishga joylashtirish**



**Oylik stipendiya miqdori**

Bakalavr darajasi:

Oylik **4.500 ₸**

Magistratura  
darajasi:

Oylik **6.500 ₸**

Doktorantura darajasi:

Oylik **9.000 ₸**

Tadqiqot stipendiyasi:

Oylik **25.000 ₸\***



**Universitet kontrakt to'lovi**



**1yillik turk tili kursi**



**Tibbiy sug'urta**



**Turar joy imkoniyati**



**Bir martalik borish-qaytish samolyot chiptasi**

Universitet ta'limi bilan bir qatorda talabalar madaniy va kasbiy rivojlanishi ham qo'llab-quvvatlanadi:



MADANIY  
TADBIRLAR



AMALIYOT  
IMKONIYATLARI



ÜNİVERSİTELAR VA NODAVLAT  
TASHKİLOTLAR YORDAMIDA  
TASHKİL QILINADIGAN  
SEMİNARLAR

\* Tadqiqot stipendiyalari, faqat oylik stipendiyadan tashkil topga.

## STIPENDIYA DASTURLARI

Turkiya stipendiyalari o'qishning ustuvor yo'nalishlariga qarab har bir ta'lif darajasi, mintaqaga va mamlakat uchun mo'ljallangan bir qator dasturlarni taklif qiladi. Nomzodlar universitetlar va akademik dasturlarga oid qo'llanmaga Turkiya stipendiyalari axborot tizimi (TBBS) orqali kirishlari mumkin.

### Texnikum stipendiya dasturlari

Ikki yil davom etadigan texnikum dasturlari talabalarga kasbiy ta'lif va malakalar o'rgatish orqali kasbga yo'naltirish imkoniyatini beradi. Mavjud bo'lim va universitetlarni ko'rish uchun internet-sahifamizni ziyorat qilishingiz mumkin.

### Bakalavr stipendiya dasturlari

Bu dastur bakalavr darajasidagi talabgorlar uchun maxsus ishlab chiqilgan. Muhandislikdan tibbiyotga, ijtimoiy fanlardan san'atga qadar bir qator yo'nalishlarga kirishni xohlovchilar uchun ochiq. Mavjud bo'lim va universitetlarni veb-sahifamiz orqali ko'rishingiz mumkin.

### Magistratura va doktorantura stipendiya dasturlari

Turkiyaning nufuzli universitetlarida magistratura va doktorantura darajasida turli yo'nalishlarda o'qish imkoniyati taqdim etiladi. Mavjud bo'lim va universitetlarni veb-sahifamiz orqali bilib olishingiz mumkin.

### Yuqori muvaffaqiyat stipendiyasi

Akademik muvaffaqiyatlari yuqori bo'lgan talabalar uchun maxsus "Yuqori muvaffaqiyat stipendiyasi" dasturi mavjud. Ushbu dastur doirasida yuqori miqdorda stipendiya to'lanadi. Talablar va batafsil ma'lumot uchun veb-sahifamizga tashrif buyuring.



## QISQA MUDDATLI DASTURLAR

---

### Yuqori muvaffaqiyat stipendiyasi

Yuqori muvaffaqiyat stipendiyasi" dasturi, hozirda Turkiya universitetlarida o'z imkoniyatlari bilan tahsil olayotgan va akademik muvaffaqiyati yuqori bo'lgan talabalar uchun maxsus ishlab chiqilgan dasturdir. Bu dastur faqat oylik stipendiya bilan ta'minlashni o'z ichiga oladi.

### Tadqiqot stipendiyasi dasturi

Tadqiqot dasturi xalqaro tadqiqotchilar va akademiklarni Turkiyaning nufuzli universitetlari hamda akademik muhitda tadqiqot hamkorligini kuchaytirish maqsadida ishlab chiqilgan dastur hisoblanadi. Ushbu dasturga doktorantura bosqichida bo'lganlar yoki doktorlik tadqiqoti olib borayotganlar ariza topshirishi mumkin.





## UMUMIY MA'LUMOTLAR

### UNUTMANG

Ba'zi bo'limlar va dasturlar uchun qo'shimcha talablar va shartlar ko'rsatilgan bo'lishi mumkin. Batafsil ma'lumot uchun dastur bo'limlarining rasmiy veb-sahifalariga tashrif buyurishingiz va murojaat sahifasini tekshirishingiz tavsiya etiladi.

## NOMZODLAR

### Ariza topshirish

Turkiya stipendiyalariga arizalar internet orqali bepul topshiriladi. Nomzodlar quyidagi havolalar orqali ariza topshirishlari mumkin:

[www.turkiyeburslari.gov.tr](http://www.turkiyeburslari.gov.tr)



yoki

[www.turkiyescholarships.gov.tr](http://www.turkiyescholarships.gov.tr)




- ^ **Turkiya stipendiyalari uchun ariza topshirish muddatlari**  
**Turkiya stipendiyalarining rasmiy veb-sahifasida e'lon qilinadi.**
- ^ **Arizalar quyidagi 8 tilda topshirilishi mumkin:** turk, arab, ingliz, fors, fransuz, rus, boshnak va ispan tillarida.

# KERAKLI HUJJATLAR

Internet orqali ariza topshirish uchun barcha nomzodlar quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari shart:

- ▣ Amal qilish muddati o'tmagan shaxsiy hujjat/ID karta
- ▣ Nomzodning yaqin kunlarda olingan fotosuratlari
- ▣ Milliy imtihon natijalari (mavjud bo'lsa)
- ▣ Diplom yoki vaqtinchalik bitiruv guvohnomasi
- ▣ Akademik baholar ro'yxati (transkript)
- ▣ Xalqaro imtihon natijalari (tanlangan dastur talab qilsa, masalan, GRE, GMAT va boshqalar)
- ▣ Til imtihoni natijalari (tanlangan dastur talab qilsa)
- ▣ Tadqiqot mavzusi taklifi va bugungacha amalga oshirgan ishlaringizga oid yozma namunalar (faqat doktorantura bosqichiga hujjat topshirmoqchi bo'lganlar uchun)



## ARIZA SHARTLARI

- Talab qilinadigan minimal akademik (reyting) natijalar:
  - Bakalavriat dasturlari uchun: 70%
    - Sog'liqni saqlash yo'nalishlari (tibbiyot, tish shifokorligi va farmatsevtika) uchun: 90%
    - Magistratura va doktorantura dasturlari uchun: 75%
  - Yosh cheklari:
    - Bakalavroldi Dasturlari (2 yil kasbiy ta'lif) uchun: 21 yoshdan kichik bo'lishi kerak
    - Bakalavriat dasturlari uchun: 21 yoshdan kichik bo'lishi kerak
    - Magistratura dasturlari uchun: 30 yoshdan kichik bo'lishi kerak
    - Doktorantura dasturlari uchun: 35 yoshdan kichik bo'lishi kerak
    - Tadqiqot dasturlari uchun: 50 yoshdan kichik bo'lishi kerak



## UNUTMANG

- ^ **Hozirda Turkiyada o'qiyotgan talabalar qaysi darajada ta'lif olayotgan bo'lsalar shu darajalar uchun ariza topshira olmaydilar.**
- ^ **Qisqa muddatli stipendiya dasturlari uchun qo'shimcha ariza shartlari talab qilinishi mumkin.**
- ^ **Ariza muddati davomida kerakli shartlarni tekshirishni unutmang.**
- ^ **Sog'liqni saqlash sohasi bo'yicha mutaxassislik stipendiya dasturi tomonidan moliyalashtirilmaydi.**

◎  
**NOMZODLAR**

## SARALASH JARAYONI

Turkiya stipendiyalari uchun arizalar nomzodning akademik yutuqlari, o'quv dasturidan tashqari faoliyatları va boshqa kasbiy ko'nikmalariga qarab baholanadi.

- 1 DASTLABKI BOSQICH**   
Arizalar minimal akademik ball, yosh chegarasi va zaruriy hujjatlar kabi asosiy talablar asosida ko'rib chiqiladi.
- 2 KO'RIB CHIQISH BOSQICHI**   
Qabul qilingan nomzodlarning arizalari mutaxassislar tomonidan quyidagi mezonlar asosida batafsil tahlil qilinadi: akademik holat, ilgari qo'lga kiritgan malakasi, ilmiy qiziqishlar, kasbiy maqsadlar, tanlovnning mosligi, niyat maktubining mazmuni va ijtimoiy faoliyatlardagi ishtiroi. Ushbu bosqichdan so'ng suhbat bosqichi uchun munosib ko'rigan nomzodlarning yakuniy ro'yxati tuziladi.
- 3 SUHBAT**   
100 dan ortiq davlatdan tanlab olingan nomzodlar suhbat komissiyalari tomonidan baholanadi. Suhbat komissiyalari odatda akademik xodimlar va Turkiya stipendiyalari vakillaridan tashkil topgan bo'ladi.  
**Suhbatlar Qanday O'tkaziladi?**  
Saralangan nomzodlar o'z mamlakatlarida o'tkaziladigan suhbatlarga taklif qilinadi. Ayrim holatlarda suhbatlar internet yoki telefon orqali amalga oshiriladi. Suhbat o'tkazuvchi guruh, odatda, kamida bitta Turkiya stipendiyalari vakili va Turkiya universitetlaridan kelgan akademik xodimdan iborat bo'ladi. Suhbat odatda 15-30 daqiqqa davom etadi va quyidagi format asosida o'tkaziladi:
  - ^ Kutib olish va kirish
  - ^ Hujjatlarning tekshirilishi
  - ^ Nomzodning ariza topshirish maqsadi
  - ^ Akademik bilim va kasbiy maqsadlar
  - ^ Yakunlash va nomzodning komissiyaga savollari
- 4 SARALASH**   
Suhbat natijalari saralash guruhi tomonidan baholanib, stipendiya olishga haqli bo'lgan nomzodlar ro'yxati tuziladi.

- 5 QABUL**   
Suhbatdan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlarga Turkiya stipendiyalari ma'lumot tizimi (TBBS) orqali va elektron pochta orqali qabul xati yuboriladi. Shuningdek, stipendiyani qabul qilish jarayonlari haqida ma'lumot beriladi. Nomzodlar Turkiyaga kelishdan oldin stipendiya sharhnomasi jarayonlarini yakunlashlari lozim.

## Yangi talabalar uchun qo'llanma

---

Turkiya stipendiyalari dasturi doirasida o'qishga qabul qilingan talabalar, Turkiyaga kelishdan oldin va kelgandan so'ng bajarilishi kerak bo'lgan barcha ishlar va umumiylar bo'yicha yangi talaba qo'llanmasi [www.turkiyeburslari.gov.tr](http://www.turkiyeburslari.gov.tr) saytidan olinishi mumkin.

## Turk tili tayyorlov kursi

Turkiya Stipendiyalari asosida yurtimizda  
oliy ta'lim olish huquqiga ega bo'lgan va  
turk tilini bilmagan talabalar uchun 1 yil  
davomida bepul turk tili tayyorlov kursi  
taqdim etiladi.

Turk tili tayyorlov kursi, faqat turkcha o'qitiladigan bo'lim va dasturlar uchun emas, balki ingliz va boshqa tillarda ta'lim beriladigan yo'nalishlarda o'qiyotgan va turk tilini bilmagan barcha talabalar uchun majburiydir. Turk tili tayyorlov kursi talabalarning o'qish joylaridagi shaharlarda joylashgan Turk tilini o'rnatish markazlari (TÖMER)da o'rnatiladi. 8 oy davom etadigan va iyun oyida yakunlanadigan turk tili tayyorlov kursi yakunida talabalar tomonidan C1 darajasidagi Turk tilini bilish sertifikatini olishlari talab qilinadi.

## Stipendiya bilan bog'liq ishlar

Talabalarning stipendiya ishlari Xorijdagi turklar va qardosh jamiyatlar agentligi (YTB) tomonidan amalga oshiriladi. Bu doirada talabalar uchun quyidagi amallar bajariladi;

- ▣ Oylik stipendiya to'lovlari
- ▣ Bank operatsiyalari
- ▣ Sug'urta bilan bog'liq ishlar
- ▣ Ta'til uchun ruxsatnomalar
- ▣ Akademik kuzatuv ishlari.

## Madaniy va akademik rivojlanish

Xalqaro talabalar uchun ijtimoiy, madaniy va akademik rivojlanishga hissa qo'shish maqsadida Turkiya Stipendiyalari doirasida ko'plab tadbirlar va loyiҳalar amalga oshirilmoqda.

## Xalqaro talabalar akademiyasi

Bizning boshqaruvimizning ko'magi bilan, Turkiyada oliy ta'lim olayotgan, asosan Turkiya Stipendiyalari talabalaridan iborat xalqaro talabalar uchun ijtimoiy, madaniy va akademik rivojlanishni qo'llab-quvvatlash maqsadida quyidagi tadbirlar tashkil etilmoqda: Fuqarolik jamiyat, madaniyat va ommaviy axborot vositalari sohasida bilim va xabardorlikni oshirish, talabalarni turk madaniyati va sivilizatsiyasi, shuningdek, Turkiyaning global qarashlari haqida xabardor qilish. Bu dastur Turkiyaning 12 ta shahrida nodavlat tashkilotlar va tadqiqot markazlari bilan hamkorlikda amalga oshirib kelinmoqda.

## Xalqaro talabalar amaliyot dasturi


Xalqaro talabalar amaliyot dasturi Turkiya stipendiyalari doirasida ta'lim olayotgan xalqaro talabalarga biznes hayotida tajriba orttirishlariga hissa qo'shish maqsadida yoz fasilda turli shaharlarda o'tkaziladi. Turkiya stipendiyasi talabalari o'qish davomida qisqa muddatli ish tajribasiga ega bo'lishlari uchun 2021-yildan beri olib borilayotgan Xalqaro talaba amaliyoti dasturi doirasida talabalarga davlat va xususiy sektorda amaliyot o'tash imkoniyati taqdim etilmoqda.

## Xalqaro talabalar fan kongressi

Turkiya stipendiylari doirasida Xalqaro talabalar fan kongressi dasturi mamlakatimiz universitetlarida magistratura va yuqori darajalarda tahsil olayotgan xalqaro talabalarning akademik bilimlarini rivojlantirishga hissa qo'shish va ilmiy tadqiqotlar jarayonida ishtirokchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshiriladi. Kongress doirasida ijtimoiy va gumanitar fanlar, bilim va muhandislik fanlari, sog'liqni saqlash fanlari va kongress maxsus mavzulari bo'yicha maqolalar qabul qilinadi.

## Xalqaro talabalar mukofotlari

Agentligimiz tomonidan Turkiyada oliy ta'lim olayotgan xalqaro talabalarning iste'dodi, bilim va tajribasini yuzaga chiqarish hamda bu borada ilgari surgan qimmatli ish va g'oyalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida har yili Xalqaro talabalar mukofotlarini tashkil etadi. Madaniyat-san'at, adabiyot, ommaviy axborot vositalari va loyihalar kabi turli yo'naliishlar bo'yicha tanlovda muvaffaqiyat qozongan xorijlik talabalarni taqdirlash va qo'llab-quvvatlash, ularning karyera rivojlanishiga yordam beradi.



## BITIRUVCHILAR

### Xalqaro talabalar bitiruv marosimi

Xalqaro talabalar bitiruv marosimi 2012-yilda Turkiya stipendiylari tashkil etilganidan beri har yili o'tkazib kelinmoqda. Ushbu dastur Turkiyada ta'lim hayotlarini muvaffaqiyatli yakunlab, Turkiya bitiruvchilari oilasiga qo'shilgan talabalarni birlashtiruvchi tadbirdir. 2021-yilda 10-xalqaro talabalar bitiruv marosimi 70 dan ortiq davlatlardan kelgan bitiruvchilarning ishtiroti bilan o'tkazildi.



## BITIRUVCHILAR

### **Bitiruvchilar tarmog'i**

Turkiya stipendiyalari sifatida biz bitiruvchilarimiz bilan uzoq muddatli va barqaror aloqalar o'rnatishning ahamiyatini tushunamiz. Turkiya bitiruvchilari bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy va akademik aloqalarni davom ettirish asosiy maqsadimizdir. Turkiya stipendiyalari tarmog'i 184 ta davlatda jami 150 mingga yaqin a'zoga ega. Bitiruvchilar bilan aloqalarni mustahkamlash maqsadida 50 dan ortiq davlatda 100 ga yaqin bitiruvchilar uchrashuvlari tashkil etilgan. Shu doirada, bitiruvchilar uyushmalarini tashkil qilishga qaratilgan loyihalar va boshqa tashkiliy faoliyatlar dunyoning har bir burchagida qo'llab-quvvatlanmoqda.

### **Bitiruvchilar uyushmalari**

Turkiya Bitiruvchilari bilan barqaror aloqalarni o'rnatish uchun ko'plab davlatlarda bitiruvchilar tomonidan ixtiyoriy bitiruvchilar uyushmalari tashkil etilgan. Bu uyushmalar Turkiya bitiruvchilarining nafaqat Turkiya bilan, balki o'zaro bir-birlari bilan institutsional aloqalarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Dunyoning ko'plab davlatlarida faoliyat yuritayotgan Bitiruvchilar uyushmalari orqali dasturni tamomilagan talabalar o'z akademik va ijtimoiy aloqalarini davom ettirib, o'z mamlakatlaridagi boshqa yoshlarni Turkiyada taqdim etilgan ta'lim imkoniyatlari haqida xabardor qilishda yordam berib kelishmoqda.



Turkiya bitiruvchilari haqida bat afsil ma'lumot uchun:  
[www.turkiyemezunlari.gov.tr](http://www.turkiyemezunlari.gov.tr)

# ARIZA TOPSHIRISH TAQVIMI

## BAKALAVR, MAGISTRATURA VA DOKTORANTURA UCHUN STIPENDIYALAR

| <b>Jarayonlar</b>  | <b>Sana</b>         |
|--|---------------------|
| Ariza topshirish muddati                                       | 10-Yanvar 20-Fevral |
| Saralash muddati   | Mart-Aprel-May      |
| Suhbat bosqichi  | iyun-iyul           |
| Natijalarni e'lon qilish                                       | Avgust              |
| Majburiyat xati va viza ariza muddati                          | Avgust              |
| Talabalarning Turkiyaga kelishi va o'quv yilining boshlanishi* | Sentabr             |

\* Eslatma: Tanlangan nomzodlar yoz oylarida ariza natijalari e'lon qilingandan keyin darhol zarur hujjatlarni rasmiyitashtirishi va diplomatik muassasalardan tegishli hujjatlarni olishlari tavsiya etiladi.

## TADQIQOT STIPENDIYALARI

| <b>Jarayonlar</b>                  | <b>Sana</b>        |
|------------------------------------|--------------------|
| 1-mavsum arizalarini e'lon qilish  | 1-Yanvar-31-Mart   |
| 1-mavsum natijalarini e'lon qilish | Aprel              |
| 2-mavsum arizalarini e'lon qilish  | 1-Aprel-30-iyun    |
| 2-mavsum natijalarini e'lon qilish | iyul               |
| 3-mavsum arizalarini e'lon qilish  | 1-Uyul-30-Sentabr  |
| 3-mavsum natijalarini e'lon qilish | Oktabr             |
| 4-mavsum arizalarini e'lon qilish  | 1-Oktabr-31-Dekabr |
| 4-mavsum natijalarini e'lon qilish | Yanvar             |

## MUVAFFAQIYAT STIPENDIYALARI

| <b>Jarayonlar</b>        | <b>Sana</b>   |
|--------------------------|---------------|
| Ariza muddati            | Oktabr-Noyabr |
| Baholash muddati         | Noyabr-Dekabr |
| Natijalarni e'lon qilish | Dekabr        |



Stipendiyalar dasturlari va ushbu dasturlarga qanday murojaat qilish haqida batafsil ma'lumot olish uchun veb-sahifalar:

**[www.turkiyeburslari.gov.tr](http://www.turkiyeburslari.gov.tr)**

**[www.turkiye scholarships.gov.tr](http://www.turkiye scholarships.gov.tr)**

Aloqa markazimiz orqali biz bilan bog'lanishingiz mumkin:

**0850 455 0982**

Savollaringiz uchun:

**[info@turkiyeburslari.gov.tr](mailto:info@turkiyeburslari.gov.tr)**

# TURKIYA STIPENDIYALARI

